

# **Bakalavriat bosqichi talabalari uchun Registon stipendiyasini tayinlash tartibi to'g'risida**

## **NIZOM**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun Registon stipendiyasini tayinlash tartibini belgilaydi.

Ushbu nizom 2021-2022 o'quv yili davri uchun amal qiladi.

2. Oliy ta'lim muassasalari bakalavriat bosqichi talabalari uchun Registon stipendiyasi O'zbekiston Respublikasidagi davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, qo'shma ta'lim dasturlarida o'qiyotgan barcha kurs talabalariga tayinlanadi va to'lanadi.

3. Registon stipendiyasi soni joriy o'quv yilida Registon nodavlat ta'lim muassasasi taqdimnomasiga binoan 30 nafar talaba uchun belgilangan.

Ushbu o'quv yilida talabalarning tashabbuslari va takliflari o'rganib chiqiladi hamda keyingi o'quv yillaridan stipendiya sovrindorlari soni va ularga beriladigan stipendiya miqdorlari oshirib boriladi.

4. Registon stipendiyasi tanlovida ishtirok etuvchi nomzodlarga quyidagi talablar belgilanadi:

a) belgilangan tartibda 2 bosqichli imtihon tizimidan o'tish;

b) o'qishi davrida yutuqlarga ega bo'lish, ilmiy (ijodiy) ishlar va konferensiya (tanlov)larda qatnashishi.

### **2-bob. Tanlovlarni o'tkazish**

5. Tanlovda ishtirok etayotgan nomzodlar birinchi va ikkinchi bosqichda mos ravishda imtihondan o'tadi hamda saralanadi.

Imtihon to'liq onlayn tartibda tashkil etiladi va natijalar onlayn tartibda taqdim etiladi.

**Birinchi bosqich (Test-imtihon shaklida)** tanlovda ishtirok etuvchi nomzodlar [OLYGOH.UZ](http://OLYGOH.UZ) platformasi orqali Respublika miqyosida onlayn imtihon topshiradilar.

**Imtihon turi:** Ingliz tili (elementary-intermediate)ga oid **40 ta test** savoli. Har bir test savoliga to'g'ri javob **1.25 balldan** baholanadi.

**Bo'lib o'tadigan vaqt:** Stipendiya tanloving 1-bosqichi **20-fevral kuni soat 19:00 da boshlanadi va 22:00 da hamma uchun imtihon oynasi yopiladi.** Shu vaqt oralig'ida ro'yxatdan o'tgan barcha nomzodlar **40 daqiqa davomida** imtihonda ishtirok etishlari mumkin. 1-bosqich yakunlangandan so'ng umumiy

natijalar mandati shakllantiriladi va eng yuqori natijani qo‘lga kiritgan **2000 (ikki ming)** nafar ishtirokchi 2-bosqichga o‘tkaziladi.

**Ikkinchi bosqich (Test-imtihon shaklida)** Stipendiya tanlovida 2-bosqichga o‘tgan nomzodlar [OLIYGOH.UZ](http://OLIYGOH.UZ) platformasida test shaklida onlayn shaklda imtihon topshiradilar va eng yuqori ko‘rsatgichga ega nomzodlar **final** bosqichiga yo‘llanma oladilar.

**Imtihon turi:** IQ ( mantiqiy tahlil) ga oid **40 ta test** savollari. Har bir test savoliga to‘g‘ri javob **1.5 ball**dan baholanadi.

**Bo‘lib o‘tadigan vaqt:** Tanlovning 2-bosqichi **27-fevral kuni soat 19:00 da boshlanadi va 22:00 da hamma uchun imtihon oynasi yopiladi.** Shu vaqt oralig‘ida ro‘yxatdan o‘tgan barcha nomzodlar **40 daqiqa** davomida imtihonda ishtirok etishlari mumkin. 2-bosqich yakunlangandan so‘ng umumiy natijalar mandati shakllantiriladi va eng yuqori natijani qo‘lga kiritgan **500 (besh yuz)** nafar ishtirokchi finalga (3-bosqich) yo‘llanmani qo‘lga kiritishadi.

**Uchinchi bosqich:** Hujjatlar topshirish bosqichi bo‘lib, stipendiya tanlovida ishtirok etayotgan nomzodlar shaxsiy profillari orqali belgilangan tartibda hujjatlarni taqdim etadilar.

Imtihonlardan saralangan nomzodlar quyidagi hujjatlarni onlayn ravishda maxsus platforma oynasi orqali taqdim qiladilar:

- shaxsni tasdiqlovchi hujjat;
- o‘qish joyidan ma‘lumotnoma (my.gov.uz orqali tasdiqlangan yoki dekanat tomonidan tasdiqlangan ma‘lumotnoma);
- dekanat yoki kafedraning tavsiyanomasi;
- Motivatsion xat;
- Tanlov va turli loyihalarda erishgan yutuqlari;
- CV (ma‘lumotnoma)
- Nashr ettirilgan ilmiy ishlar, patent, ixtirolar (agar mavjud bo‘lsa);
- Xalqaro imtihon sertifikatlari (agar mavjud bo‘lsa).

Barcha hujjatlar onlayn taqdim etiladi.

6. Nomzodlar hujjatlar yig‘majildlarini yuklab bo‘lgandan keyin, umumiy ballar hisoblab chiqiladi hamda natijalar 2 hafta davomida e‘lon qilinadi.

Umumiy ballar quyidagicha hisoblanadi:

- Ingliz tili imtihoni uchun: 50 ball
- IQ (mantiqiy tahli) imtihoni uchun: 60 ball
- Hujjatlar uchun: 90 ball

Umumiy 200 ball yig‘ilishi mumkin.

7. Stipendiya tanlovi uchun tashkil qilingan maxsus komissiyasi qaroriga asosan tanlovning 3-bosqichiga tavsiya etilgan nomzodlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar

va tegishli hujjatlar nomzodlar tomonidan elektron platformaga o'zlari tomonidan kiritiladi.

Bunda, nomzodlarning hujjatlarining asliga to'g'ri ekanligi hamda elektron platformaga o'z vaqtida va to'g'ri kiritilishiga ahamiyat berishlari kerak.

8. Registon stipendiyasiga nomzod bo'lganlarning hujjatlari maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi.

9. Registon stipendiyasi sovrindorlari talabgorlarning natijalari, belgilangan tartibda bergan hujjatlari, erishgan yutuqlari natijalarini tashkil etilgan tanlovning maxsus komissiyasi qaroriga asosan aniqlanadi.

10. Tanlov komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlariga asosan, Registon stipendiyasi sovrindori bo'lgan talabalar ro'yxati tasdiqlanadi.

### **3-bob. Stipendiyani tayinlash va ularga beriladigan imtiyozlar**

11. Tanlovning maxsus komissiyasi buyrug'i talabalarga Registon stipendiyasini tayinlash va to'lash haqidagi buyruqlarni rasmiylashtirishi uchun asos hisoblanadi.

Stipendiyalar 1-apreldan boshlab, 3 oy muddatga, belgilangan miqdorga qat'iy rioya qilgan holda tayinlanadi.

12. Registon stipendiyasi tanlovida g'olib bo'lgan talabalarga quyidagi guvohnoma beriladi:

- "Registon stipendiyasi sohibi"

13. Stipendiya guvohnoma va sertifikatlari Registon nodavlat ta'lim muassasasida tantanali ravishda topshiriladi.

14. Stipendiyaning umumiy miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 6 baravarida bo'lib, 3 oyda ushbu miqdor bo'lib to'lanadi.

Joriy o'quv yilida talabalarning tashabbuslari va takliflari tanlovning maxsus komissiyasi tomonidan o'rganib chiqilib, keyingi o'quv yillaridan stipendiya sovrindorlari soni va ularga beriladigan stipendiya miqdorlari oshirib boriladi.

### **4-bob. Yakunlovchi qoidalar**

15. Talabalarni kundalik darslarni o'zlashtirmaganlik, o'quv intizomini va odob-axloqni buzganlik uchun o'quv yili mobaynida stipendiyadan mahrum qilish oliy ta'lim muassasalari taqdimnomalariga binoan tegishli idoralar buyruqlari bilan amalga oshirilishi mumkin.